
TO'QSONBOSTI EKISHNING VAQTI KELDI

Xalqimizda "To'qsonda sug'orsang, to'qson botmon hosil olasan", degan purma'no naql bor. Bunda qishning to'qson kuni nazarda tutilgan. Bu naql bejiz aytilmagan, negaki mutaxassislarning ta'kidlashicha, kuzda ekilib, qor ostida qoldirilgan sabzavot ekinlari urug'lari erta ko'klamda yerdan barvaqt unib chiqib, tez rivojlanishi hisobiga erta hosil beradi. Erta bahorda esa mahsulotning bozori chaqqon bo'lishi sir emas.

Tumanimizda fermer xo'jaliklari rahbarlari, hokim yordamchilari ishtirokida dehqon xo'jaliklari va bog', tok oralariga to'qsonbosti ekilarini ekish va kooperatsiyalar tashkillash yuzasidan seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda viloyat hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha maslahatchisi Fazliddin Sayfutdinov, tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov, tuman sektorlari rahbarlari, qishloq xo'jaligiga daxldor viloyat, tuman mutasaddilari qatnashishib, o'zlarining topshiriq va maslahatlarini berishdi.

Mas'ullar tomonidan tumanimizdagi bog' oralari hamda dehqon xo'jaliklari tashkillash uchun berilgan maydonga to'qsonbosti ekinlarini yetishtirish uchun katta imkoniyat ekanligini gapirildi.

Bunda MFYlar yer holatlaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi mas'ullari va hokim yordamchilarining maslahatlari asosida, bir kontur - bir mahsulot tamoyilini joriy etish va kooperatsiyalar tashkillanishi kerakligini uqtirildi. Shuningdek eksportyorlarni jalb etish aholining yetishtirgan mahsulotlari bozori uchun muhimligi ta'kidlandi. Fermerlarga to'qsonbosti ekinlarini ekishda o'zlarining boy tajribalarini o'rtoqlashishlarini va maslahatlarini berib borishlarini aytib o'tildi.

2024-10-21 15:10:07